

**YURAK-QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARIDA BEMORLAR
PARVARISHINING O'ZIGA XOSLIGI.**

Elmurodova Rohatoy

Osiyo Xalqaro Universiteti tibbiyot fakulteti talabasi

Ergasheva Gulshan Toxirovna

Fundamental fanlar kafedrasi assistenti

Osiyo Xalqaro Universiteti, Bukhoro, O'zbekiston

Annotatsiya: O 'zbekistonda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari o'rganilgan bo'lib , Jahon sog'lioni saqlash tashkiloti statistik ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 15 yil ichida yurak-qon tomir tizimi kasalliklari hali ham kattalar va yosh aholi orasida o'lim va nogironlik sabablari orasida keng tarqalib, birinchilikni saqlab kelmoqda. Shuningdek, yurak-qon tomir tizimi kasalliklaridan yillik o'lim holati kuzatilishi , bu taxminan 17,7 mln kishini tashkil etadi, bu global o'limning barcha holatlarining 31% ni tashkil qiladi. Yangi yuqori zamonaviy texnologiyali tibbiy yordamlarning jadal rivojlanishi va kardiologik amaliyotga joriy etilishiga qaramasdan, bemorlarning barcha turdag'i YuTYo lardan foydalanish mexanizmlari va bu sohadagi tashkiliy jarayonlar yetarlicha o 'rganilmagan. Uning ustiga yurak qon tomir tizimi kasalliklari bilan og'rigan bemorlar parvarishining aksaryati noto'g'ri ekanligi va bemorning kundalik tartibi (ovqatlanish, uyqu tartibi, stressdan uzoq saqlanmasligi) ham kasallik belgilari tez rivojlanishi, o'lim holatini ko'paytirishi va kasallikning boshlang'ich belgisi rivojlanishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: Yurak qon tomir tizimi kasalliklari, yurak eshimik kasalliklari,bemorlar parvarishi, parhez stol.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari (YQT) dunyoda o'lim va nogironlikka olib keluvchi eng keng tarqalgan kasalliklar qatoriga kiradi. Ushbu kasalliklar asosan yurak va qon tomirlarining zararlanishi, shuningdek, qon aylanish tizimining faoliyati buzilishi bilan bog'liq. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari kelib chiqishining asosiy sabablari:

1. Noto'g'ri turmush tarzi

Yurak va qon tomirlariga ta'sir ko'rsatuvchi eng asosiy omil noto'g'ri hayot tarzi hisoblanadi. Bunga quyidagilar kirad:

Noto'g'ri ovqatlanish – yog'li, tuzli va shakarli mahsulotlarni ortiqcha iste'mol qilish.

Jismoniy faollikning yetishmasligi – kunlik harakatning kamligi va o'tirib ishslash.

Chekish va alkogol – nikotin va spirtli ichimliklar qon tomirlarining elastikligini yo‘qotishiga olib keladi.

2. Qon bosimi va xolesterinning yuqori darajasi:

Gipertoniya (yuqori qon bosimi) – bu qon tomirlariga zo‘riqish beradi va ularni zararlaydi.

Giperlipidemiya – qonda yuqori xolesterin va triglitseridlarning bo‘lishi arteriyalarda blyashka hosil bo‘lishiga olib keladi, bu esa aterosklerozni keltirib chiqaradi.

3. Genetik moyillik:

Agar oilada yurak-qon tomir kasalliklari bilan kasallanganlar bo‘lsa, bu kasalliklarga moyillik yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, bu gipertoniya va ishemik yurak kasalligida ko‘proq kuzatiladi.

4. Stress va psixologik holat.

Doimiy stress va psixologik zo‘riqishlar gormonal o‘zgarishlarni keltirib chiqarib, yurak urish tezligini oshiradi va qon tomirlariga zarar yetkazadi.

5. Yosh va jins:

Yosh omili: Yosh o‘tgan sari yurak va qon tomirlarining elastikligi pasayadi.

Jins omili: Erkaklarda YQT kasalliklari rivojlanish xavfi balandroq bo‘lsa-da, ayollarda menopauza davrida xavf oshadi.

Bu kasalliklar bilan og‘rigan bemorlar alohida parvarish va parhez stoli talab qilindi. Yuqorida aytib o‘tilgan kasalliklar bemorlarning umumiy holatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri parvarish nafaqat bemorning ahvolini yaxshilash, balki kasallikning asoratlarini oldini olish uchun ham muhimdir.

Yurak qon tomir tizimi kasalliklari bilan og‘rigan bemorlar uy sharoitida yaqinlari tomonidan va og‘ir ahvolda bo‘lgan bemorlar shifoxonada esa hamshira va shifokorlar nazorati ostida bo‘ladi.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarning uy sharoitida parvarishi:

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni uy sharoitida parvarish qilish to‘g‘ri yondashuvni talab qiladi. Bu kasalliklarning murakkabligi va xavfi sababli bemorlarga muntazam nazorat va qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Uy sharoitida parvarish, dori-darmonlarni qabul qilishdan tortib, to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faollikni ta’minalashgacha bo‘lgan turli omillarni o‘z ichiga oladi.

1. Uy sharoitida parvarishning asosiy maqsadlari:

Yurak va qon tomirlarga yukni kamaytirish. Kasallik asoratlarini oldini olish.

Bemorning umumiy holatini yaxshilash va hayot sifatini oshirish.

Profilaktik choralarini amalga oshirish.

2. Uy sharoitida parvarish choraları:

Dori-darmonlarni vaqtida qabul qilish.

Shifokor tomonidan buyurilgan dorilarni qat’iy rejim asosida qabul qilish.
 Dori-darmonlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:
 Gipertoniya uchun dorilar (qon bosimini tushirish uchun).
 Xolesterinni kamaytiruvchi dorilar (statinlar).
 Antikoagulyantlar yoki antitrombosit dorilar (tromblarning oldini olish uchun).
 Dorilarni qabul qilish vaqtlarini maxsus daftarda qayd etish yoki eslatma
 qo‘yish.

Hayotiy ko‘rsatkichlarni kuzatish:

Uy sharoitida bemorning asosiy hayotiy ko‘rsatkichlarini muntazam nazorat qilish zarur:

Qon bosimini o‘lhash: Har kuni ertalab va kechqurun o‘lhash tavsiya etiladi.

Yurak urish tezligi: Normal yurak urish tezligini nazorat qilish (60-100 urish/minut).

Shishlarning kuzatilishi: Oyoq-qo‘llarda yoki boshqa joylarda shish paydo bo‘lsa, shifokorga murojaat qilish.

3. Ovqatlanishni nazorat qilish:

Bu yurak qon tomir tizimi kasalliklarida shifokor tomonidan maxsus parhez stollaridan 10-parhez stoli tavsiya beradi. Bunda quyidagilarni qat’iyan cheklaydi.

Tuzni cheklash: Tuz iste’molini kamaytirish yurak va qon tomirlarga yukni kamaytiradi.

To‘g‘ri mahsulotlarni tanlash: Meva, sabzavot, to‘yingan tolalar va omega-3 yog‘ kislotalariga boy oziq-ovqatlarni iste’mol qilish.

Yog‘ va xolesterin iste’molini kamaytirish: Qovurilgan va yog‘li taomlardan voz kechish.

Shakarni cheklash: Qandli diabetning oldini olish yoki uni nazorat qilish uchun muhim.

Suyuqlik miqdorini nazorat qilish: Shifokorning tavsiyasiga ko‘ra, kunlik ichiladigan suv miqdorini oshirib yoki kamaytirib borish.

4. Jismoniy faollikni ta’minlash:

Har kuni yengil jismoniy mashqlarni bajartirish, masalan, 10-15 daqiqa yurish.

Bemorning holatiga qarab maxsus davolash mashqlari rejasini ishlab chiqish.

Og‘ir jismoniy yuk va zo‘riqishdan saqlanish.

5. Ruhiy va psixologik qo‘llab-quvvatlash:

Yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlar ko‘pincha ruhiy tushkunlik yoki xavotirga tushadi.

Bemorning ruhiyatini ko‘tarish uchun oilaviy e’tibor va mehr ko‘rsatish zarur.

Stressni kamaytirish uchun meditatsiya yoki nafas olish mashqlarini o‘rgatish tavsiya etiladi.

6. Favqulodda holatlarda ko‘riladigan choralar :

Agar bemorda quyidagi holatlar kuzatilsa, darhol shifokorga murojaat qilish kerak:

Ko‘krak sohasida og‘riq paydo bo‘lsa yoki kuchaysa.

Nafas qisishi yoki bo‘g‘ilish alomatlari bo‘lsa.

Qon bosimi keskin oshsa yoki tushib ketsa.

Qattiq bosh aylanishi yoki hushdan ketish kuzatilsa.

7. Profilaktika va maslahatlar:

Chekish va alkogolni butunlay tashlash.

Kunlik rejimga qat’iy amal qilish, yetarli darajada dam olish.

O‘z vaqtida shifokor ko‘rigidan o‘tish va tavsiyalarga amal qilish.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarning shifokor va hamshira nazorati ostida parvarishi:

Shifokorning vazifalari:

A. Diagnostika va davolash rejasini ishlab chiqish.

Kasallikning aniqligi uchun elektrokardiografiya (EKG), qon tahlillari, eforometrik testlar, ekokardiografiya kabi diagnostik tekshiruvlarni o‘tkazadi

Davolash rejasini tuzadi, jumladan:

Dori-darmonlarni belgilash: antigipertenziyvlar, statinlar va boshqalar.

Jismoniy mashqlar rejası: bemorning holatiga mos davolash mashqlari.

Parhez stoli va turmush tarzi bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi.

B. Bemorning holatini muntazam baholash.

Yurak urish tezligi, qon bosimi, EKG natijalarini tahlil qiladi.

Kasallikning rivojlanishini kuzatadi va zarurat bo‘lsa, davolash rejimiga o‘zgartirish kiritadi.

C. Profilaktika choralari:

Kasallikning oldini olish uchun chekishni tashlash, vaznni normallashtirish va sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qiladi.

Hamshiraning vazifalari:

A. Bemor parvarishi bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar.

Hamshira shifokor buyurgan davolash rejası asosida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

Dori-darmonlarni berish: Bemorga shifokor buyurgan dorilarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida qabul qildiradi.

Hayotiy ko‘rsatkichlarni kuzatish:

Qon bosimini muntazam o‘lchash va natijalarini yozib borish.

Yurak urish tezligini nazorat qilish.

Kislород yetishmovchiligi kuzatilsa, kislород terapiyasini tashkil qilish.

Shishlarni kuzatish: Qo‘l-oyoqlarda yoki tananing boshqa joylarida shish paydo bo‘lsa, bu haqda shifokorga ma’lumot beradi.

B. Parhez stoli va ovqatlanishni tashkil qilish:

Bemorning parheziga qat’iy rioya etilishini ta’minlaydi.

Tuz, yog‘ va xolesterin miqdorini cheklashga yordam beradi.

C. Psixologik qo‘llab-quvvatlash:

Bemor va uning oila a’zolariga psixologik yordam ko‘rsatadi.

Stressni kamaytirish va ijobiy ruhiyatni ta’minlashga ko‘maklashadi.

D. Reabilitatsiya jarayonida yordam berish

Bemorga jismoniy mashqlarni to‘g‘ri bajarishda ko‘maklashadi.

Bemorga yurish, nafas mashqlari va boshqa reabilitatsiya choralari bo‘yicha yo‘riqnomalar beradi.

Hamshira va shifokor vazifalari:

Darhol EKG yoki boshqa zaruriy tekshiruvlarni amalga oshirish.

Bemorning holatiga qarab, kislorod terapiyasi, og‘riq qoldiruvchi yoki qon aylanishini normallashtiruvchi dorilarni qo‘llash.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarning shifokor va hamshira nazorati ostida parvarishi nafaqat davolash jarayonining muhim qismi, balki kasallikning asoratlanishini oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega. Muntazam diagnostika, to‘g‘ri davo rejasi va parvarish choralari bemorning sog‘lig‘ini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. M. F. Ziyayeva „Hamshiralik ishi mutaxasisligi bo‘yicha amaliyotlar standarti” 2001-yil.
2. L. S. Zakinlina „Bemorlarning umumiyligi parvarishi “ „Abu Ali ibn Sino” 1996-yil.
3. Z. J. Nabulloyev „ Yurak qon tomir tizimi kasalliklarining sabablari va ularni davolash.” 2024- yil.
4. Toxirovna, E. G. (2024). QALQONSIMON BEZ KASALLIKLARIDAN HASHIMOTO TIREODIT KASALLIGINING MORFOFUNKSIONAL O’ZIGA XOSLIGI. *Modern education and development*, 16(7), 120-135.
5. Toxirovna, E. G. (2024). REVMATOID ARTRIT: BO’G’IMLAR YALLIG’LANISHINING SABABLARI, KLINIK BELGILARI, OQIBATLARI VA ZAMONAVIY DAVOLASH YONDASHUVLARI. *Modern education and development*, 16(7), 136-148.
6. Эргашева, Г. Т. (2024). ОЦЕНКА КЛИНИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРЛИСТАТА У БОЛЬНЫХ ОЖИРЕНИЕМ И АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ. *Modern education and development*, 16(7), 92-105.

7. Ergasheva, G. T. (2024). THE SPECIFICITY OF AUTOIMMUNE THYROIDITIS IN PREGNANCY. *European Journal of Modern Medicine and Practice*, 4(11), 448-453.
8. Эргашева, Г. Т. (2024). ИССЛЕДОВАНИЕ ФУНКЦИИ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ ПРИ ТИРЕОИДИТЕ ХАШИМОТО. *Modern education and development*, 16(7), 106-119.
9. Toxirovna, E. G. (2024). GIPOFIZ ADENOMASINI NAZORAT QILISHDA KONSERVATIV JARROHLIK VA RADIATSIYA TERAPIYASINING UZOQ MUDDATLI SAMARADORLIGI. *Modern education and development*, 16(7), 79-91.
10. ERGASHEVA, G. T. (2024). OBESITY AND OVARIAN INSUFFICIENCY. *Valeology: International Journal of Medical Anthropology and Bioethics*, 2(09), 106-111.
11. Ergasheva, G. T. (2024). Modern Methods in the Diagnosis of Autoimmune Thyroiditis. *American Journal of Bioscience and Clinical Integrity*, 1(10), 43-50.
12. Tokhirovna, E. G. (2024). COEXISTENCE OF CARDIOVASCULAR DISEASES IN PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES. *TADQIQOTLAR. UZ*, 40(3), 55-62.
13. Toxirovna, E. G. (2024). DETERMINATION AND STUDY OF GLYCEMIA IN PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES MELLITUS WITH COMORBID DISEASES. *TADQIQOTLAR. UZ*, 40(3), 71-77.
14. Toxirovna, E. G. (2024). XOMILADORLIKDA QANDLI DIABET KELTIRIB CHIQARUVCHI XAVF OMILLARINI ERTA ANIQLASH USULLARI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 40(3), 63-70.
15. Toxirovna, E. G. (2024). QANDLI DIABET 2-TIP VA KOMORBID KASALLIKLARI BO'LGAN BEMOLARDADA GLIKEMIK NAZORAT. *TADQIQOTLAR. UZ*, 40(3), 48-54.
16. Tokhirovna, E. G. (2024). MECHANISM OF ACTION OF METFORMIN (BIGUANIDE) IN TYPE 2 DIABETES. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 3(5), 210-216.
17. Tokhirovna, E. G. (2024). THE ROLE OF METFORMIN (GLIFORMIN) IN THE TREATMENT OF PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES MELLITUS. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(4), 171-177.
18. Эргашева, Г. Т. (2024). Эффект Применения Бигуанида При Сахарным Диабетом 2 Типа И Covid-19. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(3), 55-61.
19. Toxirovna, E. G. (2024). QANDLI DIABET 2 TUR VA YURAK QON TOMIR KASALLIKLARINING BEMOLARDADA BIRGALIKDA

KECHISHI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 38(7), 202-209.

20. Эргашева, Г. Т. (2024). СОСУЩЕСТВОВАНИЕ ДИАБЕТА 2 ТИПА И СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ПАЦИЕНТОВ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 219-226.
21. Эргашева, Г. Т. (2024). СНИЖЕНИЕ РИСКА ОСЛОЖНЕНИЙ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА И СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ. *Образование Наука И Инновационные Идеи В Мире*, 38(7), 210-218.
22. Tokhirovna, E. G. (2024). CLINICAL AND MORPHOLOGICAL ASPECTS OF THE COURSE OF ARTERIAL HYPERTENSION. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 234-243.
23. Tokhirovna, E. G. Studying the Causes of the Relationship between Type 2 Diabetes and Obesity. *Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd)*, ISSN, 2456-6470.
24. Toxirovna, E. G. (2024). ARTERIAL GIPERTENZIYA KURSINING KLINIK VA MORFOLOGIK LIHATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 244-253.
25. Эргашева, Г. Т. (2024). НОВЫЕ АСПЕКТЫ ТЕЧЕНИЕ АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТОНИИ У ВЗРОСЛОГО НАСЕЛЕНИЕ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 224-233.
26. Эргашева, Г. Т. (2024). ФАКТОРЫ РИСКА РАЗВИТИЯ САХАРНОГО ДИАБЕТА 2 ТИПА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 70-74.
27. Эргашева, Г. Т. (2024). ОСЛОЖНЕНИЯ САХАРНОГО ДИАБЕТА 2 ТИПА ХАРАКТЕРНЫ ДЛЯ КОГНИТИВНЫХ НАРУШЕНИЙ. *TADQIQOTLAR. UZ*, 30(3), 112-119.
28. Эргашева, Г. Т. (2023). Исследование Причин Связи Диабета 2 Типа И Ожирения. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 305-311.
29. Tokhirovna, E. G. (2024). Risk factors for developing type 2 diabetes mellitus. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 64-69.
30. Toxirovna, E. G. (2024). QANDLI DIABET 2-TUR VA O'LIMNI KELTIRIB CHIQARUVCHI SABABLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 86-93.
31. Tokhirovna, E. G. (2023). Study of clinical characteristics of patients with type 2 diabetes mellitus in middle and old age. *Journal of Science in Medicine and Life*, 1(4), 16-19.

32. Toxirovna, E. G. (2024). GIPERPROLAKTINEMIYA KLINIK BELGILARI VA BEPUSHTLIKKA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 168-175.
33. Toxirovna, E. G. (2023). QANDLI DIABET 2-TUR VA SEMIZLIKNING O'ZARO BOG'LIQLIK SABABLARINI O'RGANISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(3), 168-173.
34. Saidova, L. B., & Ergashev, G. T. (2022). Improvement of rehabilitation and rehabilitation criteria for patients with type 2 diabetes.
35. Эргашева, Г. Т. (2023). Изучение Клинических Особенностей Больных Сахарным Диабетом 2 Типа Среднего И Пожилого Возраста. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(6), 274-276.
36. Toxirovna, E. G. (2023). O'RTA VA KEKSA YOSHLI BEMORLARDA 2-TUR QANDLI DIABET KECHISHINING KLINIKO-MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(1), 164-166.
37. Ergasheva, G. T. (2022). QANDLI DIABET BILAN KASALLANGANLARDA REabilitatsiya MEZONLARINI TAKOMILASHTIRISH. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI*, 2(12), 335-337.
38. Ergasheva, G. (2024). METHODS TO PREVENT SIDE EFFECTS OF DIABETES MELLITUS IN SICK PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 1(2), 12-16.
39. ГТ, Э., & Saidova, Л. Б. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕАБИЛИТАЦИОННО-ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ КРИТЕРИЕВ БОЛЬНЫХ С СД-2 ТИПА. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI*, 2(12), 206-209.